



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





“KUNTUG’MISH” dostonida qo’llangan onomastik birliklarning leksik-semantik tahlili

Abruyeva Sarvinoz

SamDU filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Xalq dostonlarida onomastik birliklarning qo’llanilish o’rni va doirasi juda keng. Biz mazkur maqolada “Kuntug’mish” dostonida qo’llangan onomastik birliklarni tahlil qilamiz.

Kalit so’z: Onomastika, antroponim, toponim, gidronim, oronim, agronim, obrazlar semantikasi, doston poetikasi.

Onomastika – yunoncha so’z bo’lib, “ nom qo’yish san’ati “ degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma’noda qo’llaniladi: 1) ma’lum bir til , xalq tarkibida qo’llangan barcha atqoli otlarning yig’indisi; 1) atoqli otlar , ularning shakllanishi va o’ziga xos xususiyatlarni o’rganuvchi tilshunoslik sohasi(1, 5-bet).

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko’ra quyidagicha guruh(bo’lim)larga ajratadi: Antroponim-kishilarning atoqli nomlari(ismlari,familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), zoonim- hayvonlarga quyiladigan (shartli)atoqli nomlar,laqablar(1,7-b).Shuningdek,har qanday joyning nomi , uni boshqalardan farqlaydigan atamasi hamda shu atama bilan bog’liq so’zlar guruhi mavjud bo’ladi. Joy nomlarini bir – biridan farqlashga xizmat qiladigan birlik- toponim. Toponim yunoncha so’z bo’lib, topos- joy , onoma- nom(1,27).

O’zbek xalqi og’zaki ijodida epik janrlar, xususan, xalq dostonlari muhim o’rin tutadi.Dostonlarda nafaqat qahramonlarning hayoti , balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi turmush tarzi ham o’z ifodasini topadi.Shu jihatdan onomastik birliklar – antroponimlar , toponimlar, gidronimlar , oronimlar va boshqa nomlar doston poetikasining ajralmas bo’lagi hisoblanadi.Ular asarda tasvirlanayotgan makon va zamonning haqqoniyligini ta’minlaydi .

Kuntug’mish dostoni Nurmon Abduvov o’g’li , Egamberdi Olamurod o’g’li, Ergash Jumanbulbul o’g’li, Bekmurod Jo’raboy o’g’li va boshqa baxshilardan yozib olingan.Ergash shoir va Bekmurod Baxshi variantlari nashr etilgan (1971- 1975). H.T. Zarifov , V.M.Jirmunskiy, M. Saidov, T. Mirzayev va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Asarda bosh qahramon Kuntug’mish obrazi orqali odillik va insonparvarlik g’oyalari ulug’lanadi.Folklorshunosligimizda “KUNTUG’MISH” ishqiy – romantik turdagi doston sifatida qaraladi.

Doston matnidagi antroponimlar tahlili .Dostondan 30 dan ziyod antroponimlar qo’llangan. Ular quyidagilar hisoblanadi:

Bosh obrazlar: Qoraxon (Qilichxon), Kuntug’mish (O’zbek), Xolbeka (Oybibim), Xolmo’min, Mohiboy, Go’rkiboy, Buvraxon.





Ikkinchi darajali obrazlar: Shoir Vazir, Tohir Vazir, Bahragul, Xizir Ilyos, Yunus Payg'ambar, Zamonqul, Chaqqon Kaniz, Shohimardon Pir, Rasul (Muhammad S.A.V), Azbarxo'ja, Davlatqul, Qosim, Yusuf, Zulayho, Layli, Majnun, Yoz, Zebo, Axtaqul, G'udolqul, Ayrisoqol, Munkir Farishta, Mansur, Bobo Zangi podachi kabilar.

Ba'zi ismlar ma'nosini Ernest Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi" nomli Ilmiy asaridan foydalanib keltirib o'tamiz. Jumladan, 1. Kuntug'mish (o'z)-quyoshdan tug'ilgan, umri quyoshdek Ravshan bola, quyosh farzandi (191-b).

2. Xolbeka (ft-o'z)- badanida xol bilan to'g'ilgan beklar avlodiga mansub qiz (463-b).

3. Xolmo'min (ft-ar)- xol bilan tug'ilgan mo'min, qobil bola (466-b).

Shuni ham aytib o'tishimiz joizki, dostonda Mohiboy va Go'rkiboy kabi ismlarning qanday quyilganligi haqida aytib o'tiladi. Go'rkiboyni go'rk degan bo'ri olib qochganligi uchun shunday nom berishadi. Mohiboyni esa mohi degan baliq yutib yuborgani uchun unga shunaqa nom berishadi. Bu dostonda Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun, Zebo va Yoz kabi badiiy asar qahramonlarini qisman keltirib o'tiladi.

Antroponimlarning yasashiga ko'ra turlari bo'yicha:

1. Sodda antroponimlar: Shoir, Tohir, Qosim, Layli, Majnun, Yusuf, Zulayho va bosh

2. Qo'shma antroponimlar: Zamonqul, G'udolqul, Axtaqul, Bahragul, Azbarxo'ja, Davlatqul va bosh.

3. Dostonda yana bir qancha onomastik birliklar qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

Toponim: NO'G'OY, ZANGAR, DOG'ISTON, QATAG'AN.

Gidronim: TAJAN daryosi, JAYHUN, OQSUV.

Oronim: MO'G'OL, OLATOG'.

Agronim: ZARCHAMAN cho'l.

XULOSA. "Kuntug'mish" dostonida uchraydigan onomastik birliklar – antroponim, toponim, gidronim, oronim va boshqalar – dostonning badiiy tuzilishi hamda mazmunining muhim tarkibiy elementlaridir. Antroponimlar qahramonlarning ichki sifatlarini ochib beradi.

Adabiyotlar:

1. Бематов Е. Узбек исмлари маъноси. 2-нашри. "УЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ ЭНСИКЛОПЕДИЯСИ давлат илмий нашриёти" – ТОШКЕНТ: - 2007.

2. Kilichev B. Onomastika. O'quv- qo'llanma. -Buxoro :- 2023.

3. KUNTUG'MISH. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. - Toshkent:- 1975.

